


2020- yilning yanvar-dekabr oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari.



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **5 089,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **107,2 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 236 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 370 taga ko'paygan.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **114,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **55,6 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **111,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **10,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **110,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **33,8 %**) o'sishidir.




**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.01.2020- yil	01.01.2021- yil	
	Farg'ona viloyati	2866	3236	112,9
	<i>shaharlar:</i>			
	Farg'ona	771	866	112,3
	Qo'qon	295	322	109,2
	Quvasoy	101	115	113,9
	Marg'ilon	279	330	118,3
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltiariq	93	112	120,4
	Qo'shstepta	97	104	107,2
	Bag'dod	147	159	108,2
	Buvayda	118	133	112,7
	Beshariq	77	81	109,5
	Quva	136	138	101,5
	Uchko'prik	151	173	114,6

	Rishton	63	71	112,7
	So'x	32	44	137,5
	Toshloq	117	132	112,8
	O'zbekiston	76	83	109,2
	Farg'ona	73	97	132,9
	Dang'ara	116	123	106,0
	Furqat	62	73	117,7
	Yozyovon	65	80	123,1


**Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalarini soni,
01.01.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalarini Farg'ona sh. (26,7 %), Marg'ilon shahri (10,1 %) va Qo'qon (10,0 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **631,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **138,4** % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,7** % punktga ko'payib, **12,4** % ni tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Yozyovon tumanida jami qurilish ishlari hajmining **44,4** % i yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan **97,2** %, Quvasoy shahri jami qurilish ishlari hajmining **21,5** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,0** mart, va Qo'qon shahri jami qurilish ishlari hajmining **21,1** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **51,4** % ga to'g'ri keldi.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,8 % i to'g'ri kelib, 2019 - yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichiga nisbatan 3,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etgan holda 3 146,3 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida norasmiy sektor

2019- yil
yanvar-dekabr



2020- yil
yanvar-dekabr



 o'sish sur'ati, % da

 ulushi, % da

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **134,9** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 954,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,7** % va **97,3** % ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2,7

Davlat mulki

97,3

Nodavlat mulk

4,8

95,2



2019- yil
yanvar-dekabr

2020- yil
yanvar-dekabr

Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-dekabr

Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaring 61,6 % i yoki **3 137,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

61,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **452,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlardagi ulushi 14,4 % ni tashkil etdi

14,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 514,2** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlardagi ulushi 48,3 % ni tashkil etdi.

48,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1170,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 37,3 % ni tashkil etdi.

37,3 %




**2020- yilning yanvar-dekabr oylarida
shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati*	5 089,6	107,2	3 137,5
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	1253,4	116,4	580,7
Qo'qon	358,7	80,1	204,9
Quvasoy	209,4	146,1	191,4
Marg'ilon	776,9	117,3	466,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	193,7	120,7	65,3
Qo'shtepa	250,6	196,7	153,4
Bag'dod	325,1	107,3	221,9
Buvayda	123,9	107,2	61,3
Beshariq	257,6	81,1	436,9
Quva	189,0	110,5	155,7
Uchko'prik	141,9	100,4	39,5
Rishton	84,1	123,8	38,5
So'x	100,7	162,2	14,6
Toshloq	126,8	102,1	69,1
O'zbekiston	131,0	95,0	115,7
Farg'ona	76,4	88,9	28,6
Dang'ara	198,4	77,2	149,2
Furqat	145,8	96,3	106,6
Yozyovon	145,4	108,5	37,6

* Viloyat bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **9,6 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,3 %** punktni ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,5 %** punktga kamayib, **58,3 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-dekabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamayib, **32,1 %** ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **31,4 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **3,2 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **67,5 %** (**3,5 %** punktga kamayidi) hamda norasmiy sektorning ulushi **1,1 %** (**0,3 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,9 %** punktga kamaydi va **13,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **86,1 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **12,9 %**

ulushi, % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Investitsiyalar va qurilish statistikasi

bo'limi

ijr : U.Qoraboev

Tel.: (73) 249-87-26, 241-98-42



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI